

TAFAKKUR ERKINLIGI, SIFATLI TA'LIM - UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHNING ZARURIY SHARTI

Axmedova Dilafrō'z Qudratullayevna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani ixtisoslashtirilgan maktab direktori,

Navoiy Davlat Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi.

dilafroaxmedova1@gmail.com

+998993865321

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12798282>

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy jamiyatdagi ta'lim –tarbiya tizimidagi islohotlar, Prezident va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'qitish jarayonlari va ularning umumiy o'rta maktablaridagi ta'lim berish usullarining farqli va o'xshash jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, ong erkinligi, milliy mafkuraviy brend, "Steam-ta'lim"(Science-tabiiy fanlar, Technology-texnologiyalar, Engineering-texnik ijodkorlik, Art-san'at, mathematics-matematika) dasturlari.

So'nggi yillarda yurtimizda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda 2019 yildan boshlab, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ining yaratilishi va zamonaviy dasturlar asosida o'qitish tizimining joriy etilishi intellektual salohiyatli yoshlarni tizimli o'qitish va tarbiyalash imkonini berdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar O'zbekiston o'zini taraqqiy etgan xalqlar va davlatlar qatorida ko'rmoqchi bo'lsa, avvalo, insonlar tafakkurini dogmatizm va qaramlikdan xalos qila olishi uchun zamin yarata olishi kerak. Ong erkinligi barcha sohalarida individual, jamoaviy va milliy erkinlikning aqliy va hissiy asosidir. Tafakkur erkinligi Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning zarur shartidir. BMT ekspertlari ishtirokida ishlab chiqilgan 2030 yilgacha mo'ljallangan strategik rivojlantirish konsepsiyasida ham inson huquq va erkinliklari kafolatlanib, OAB vositalari erkinligi o'sishi, bloggerlar faoliyati uchun munosib shart – sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilgan. Globallashuv zamonida mafkuraviy maydondagi g'oyalar kurashida salbiy holatga tushib qolmaslik uchun Uchinchi Renessans davri o'z oldiga odamlarni fidokorlikka chorlaydigan, g'ururini uyg'otadigan milliy mafkuraviy brendlar yaratish mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi kerak.. Bu jarayonda albatta, intellektual harakatga, aqliy tahlilga tayaniladi. Ta'lim tizimidagi oxirgi yillardagi islohotlarni tahlil qilar ekanmiz, bilim olish va bilim berish jarayoni bir necha omillarga (oiladagi muhim, jismoniy rivojlanish, atrof munit ta'siri va h) bog'liq holda takomillasha olishi yana bir bor o'z isbotini topdi. Uchinchi Renessansni faqat salohiyatli, intellektual qobiliyatli, noyob iste'dod egalarigina yarata oladi. Bu toifadagilarni vujudga keltirishda esa sog'lom tabiatli va sog'lom vujudli aholi qatlami yuz ko'rsatishi kerak. Tarix saboqlari va taraqqiyot talablaridan kelib chiqib ta'lim, ilm-fan, innovatsiyalar, erkin fikrlovchi, raqobatbardosh mutaxassislarni tarbiyalash, yangi texnologiyalarni joriy qilish, raqamli iqtisodiyotga o'tish, yangicha fikrlash va ishlash masalalariga birinchi vazifa deb qaralmoqda. Ilmga asoslanmagan jamiyatning kelajagi yo'qligini his qilingan holda, O'zbekistonda Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'i barpo etildi va takomillashtirilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridan farqli ravishda bu turdagi maktablarda o'quvchilar tanlagan yo'nalishiga muvofiq tegishli fan imtihonlaridan o'tib, ixtisoslik fahlar bo'yicha zamonaviy ta'lim dasturlari asosida tehsil olishadi va o'z navbatida "kelajak kasblari" deya baholanayotgan

sohalarga qiziqishlari bo'yicha yo'naltiriladi, xorijiy tillar mukammal dasturlar asosida o'qitiladi va xorijiy mutaxassislar, ekspertlar xulosasi asosida rejalar belgilab olinadi. Biz zamonaviy jamiyatda bilimning antropologik mohiyatini o'rganishni maqsad qilgan vaqtdayoq, insonlarning tafakkuri va bilimning inson hayotidagi ahamiyati qay darajaligini ularning tasavvuri orqali bilishni maqsad qilgan holda telegram tarmog'ida so'rovnoma o'tkazdik va natijasi, albatta, biz anglagan haqiqatni ochib berdi. Ya'ni zamonaviy jamiyat ilm va ilmiy texnikalarga, inson tafakkuriga singib boradigan bilimga muhtoj. Jamiyatdagi biror bir soha yo'qki, bilimga suyanmagan, bilimsiz taraqqiyotni orzu qilmagan.

Zamonaviy ta'lim davrida iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rgatish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil etish, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborot izlash, tahlil qilish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasini oshirish maqsadida Prezident ta'lim muassasalari tashkil etildi va keyinchalik ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi sifatida faoliyatini davom ettirishi belgilandi.

O'zbekiston ta'lim tizimida 2019 yildan boshlab, har bir viloyatda faoliyat yurita boshlagan Prezident maktablarida zamonaviy ta'lim dasturlari asosida ta'limning tashkil etilishi, bilim berishda erkinlik va demokratiya tamoyiliga nisbatan ustun ahamiyat berilishi avvalgi ta'lim tizimidan tubdan farq qiladi, deb aytish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-4199- qaroriga muvofiq Prezident maktablarida "Steam-ta'lim" (Science-tabiiy fanlar, Technology-texnologiyalar, Engineering-texnik ijodkorlik, Art-san'at, mathematics-matematika) dasturining joriy etilishi- ta'limning rivojlantiruvchi, faol tabiati butun bilim tizimini o'zgartirishi va nazariy bilimlarning yetishmasligini yengib, nafaqat bilimga, balki ko'nikmalarga ham e'tibor qaratishi kerakligini anglatadi. Bizning davrimizda bilimlarni o'zlashtirish qobiliyati va uni kasbiy faoliyatda va hatto kundalik hayotda qo'llash qobiliyati o'rtasidagi tafovut tobora ravshan bo'lib bormoqda. Ana shu jarayonda ham gumanitar, ham aniq fanlar sohasidagi bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, takomillashtirish – ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri sifatida e'tirof e'tiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 apreldagi "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risidagi" farmonida ham ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda joriy etish bo'yicha rivojlangan davlatlar bilan ta'lim va ilm-fanni takomillashtirish borasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, dunyo miqyosida tan olingan, axborot –kommunikatsiya texnologiyalari, tibbiyot, ekologiya, muhandislik va boshqa sohalardagi yetakchi tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish masalalari ilgari surilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 5 maydagi "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablar to'g'risidagi nizimni tasdiqlash haqida"gi qarorda zamonaviy jamiyatda ixtisoslashtirilgan maktablarning asosiy vazifalari va o'quv tarbiya jarayonida bilim berish usullari, samaradorligini ta'minlash omillari to'g'risida fikr yuritilgan.

Ayni vaqtda O'zbekistonda aynan shu agentlik tizimida 14 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi, 185 ta ixtisoslashtirilgan maktab, New Uzbekistan university, Pedagoglarni mahoratini oshirish markazi, Renessans oromgohi faoliyat yuritmoqda. 2023-24 o'quv yilidan

boshlab bosqichma bosqich ushbu agentlik tizimi ta'lim tarbiya jarayoni va o'qitish usullari 500 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham tajriba –sinov tarzida yo'lga qo'yilib, eksprement o'tkazilmoqda. Ta'lim turlarining takomillashuvi: onlayn, offlayn, inkluzif, masofaviy va h larning keng omma tomonidan qabul qilinishi ilmga bo'lgan e'tiborning bir na'munasidir. Bu kabi jarayonlar ham bilim berishning samarali va hamma uchun tushunarli usullarini kashf etishga sabab bo'ladi.

References:

1. Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2020 yil 29 oktabr // Xalq so'zi–2020.–30 okt.
2. Ta'lim to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2020 yil 23 sentabr // Xalq so'zi–2020.–24 sent.
3. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2022 yil 28 yanvar // Xalq so'zi.–2022.– 29 yanv.
4. Mirziyoyev. Sh.M.Konstitutsiya -erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir – Toshkent: O'zbekiston,2018.–64 b.
5. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.-464 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambliyasining 72- sessiyasida so'zlagan nutqi// <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/>
7. “ Uchinchi Renessans poydevori sifatli ta'lim-tarbiyaga suyanadi” maqolasi. Tarix fanlari doktori, professor Eshqobil Xoliqov, tarix fanlari nomzodi, dotsent Xayriddin Berdiyev.“ Yangi O'zbekiston” gazetasi 2022 yil 14 dekabr.
8. “Yangi O'zbekiston: mo'ljal- Uchinchi Renessans” risolasi. Abdurayim Erkayev. Toshkent. “Ma'naviyat”.2021 yil
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “ Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora –tartiblari to'g'risida”. 1.04.2024. №PF55
10. Andreas Shlyaxer “Jahon miqyosidagi ta'lim” Toshkent: Zamin nashr, 2022 .-269 bet